

O'ZBEKISTONNING EKOLOGIK MUAMMOLARI

Egamov Odiljon Mirzamurod o'g'li

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya va
Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonning ekologik muammolari va ularning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, unda Orol dengizi hamda boshqa muhim muammolar yuzasidan asosli tahlil olib borilib ushbu muammolarga yechim ham kiritilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Orolbo'yi hududi, ekologik muammolar, Qozog'iston, Turkmaniston, Amudaryo, Sirdaryo, Yaponiya.*

Аннотация: *Данная статья посвящена экологическим проблемам Узбекистана и их решению, в которой проведен обоснованный анализ Аральского моря и других важных проблем и включены решения этих проблем.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Аралбойский регион, экологические памятники, Казахстан, Туркменистан, Амударья, Сырдарья, Япония.*

Abstract: *This article is devoted to Uzbekistan's environmental problems and their solution, in which a reasonable analysis of the Aral Sea and other important problems is carried out and solutions to these problems are included.*

Key words: *Uzbekistan, Aralboi region, ecological monuments, Kazakhstan, Turkmenistan, Amudarya, Syrdarya, Japan.*

O'zbekiston Respublikasi dunyoda o'z o'rne va mavqe'yiga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining maydoni 448,9 ming km² bo'lib dunyoda 55 o'rinni egallaydi. Ammo ushbu yirik hududga ega bo'lgan jonajon Respublikamizning o'ziga yarasha muammolari va sabablari ham bor bularning eng muhimlaridan biri ekologik muammolarimiz hisoblanadi. Ushbu ekologik muammolarimizning eng yirigi Orolbo'yi ekologik muamosi hisoblanadi. Ushbu ekologik muammo hududida yashaydigan orolbo'yi atroflarida 5 million aholi istiqomat qilmoqda. Orolbo'yi ekologik muamosi bu regional muammo hisoblanadi. Chunki ushbu hududlar 3-respublikani tashkil etadi. Bu hududlarga Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kiritiladi. Orol atrolarida hozirgi kunda sho'rланish darjasi ortib ketdi. Aholi o'rtasida kasalliklarning juda ko'p turlari paydo bo'lmoqda. Masalan tif, rak, kamqonlik kabi kasaliklar insonlar orasida avj olmoqda. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tufayli vaziyat ozroq bo'lsa ham o'nglanmoqda. 1950-1960 yillar o'ralig'ida O'zbekiston SSR tomonidan yo'lga qo'yilgan cho'lning o'zlashtirilishi ham salbiy ham ijobiy oqibatlariga olib keldi. Salbiy oqibatlaridan biri Amudaryoning Orol dengiziga suv qo'ymay qo'ygani sababli dengiz deb atalgan hudud eng yosh bo'lgan Orol cho'lga aylanib qoldi. 1983-1985 yillarda Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo bir tomchi ham suv qo'ymay qo'ydi. O'sha yili

bu hodisalar tufayli ushbu fojia kelib chiqdi. Biz bu fojining tarixi, sabablari va u keltirib chiqargan fojialar bilan tanishib chiqdik. Endi ushbu fojining oldini olish yoki u keltirib chiqarayotgan muammolarni kamaytirish masalasida bosh qotirishimiz kerak. Birinchi o'rinda ushbu hududdagi qum bo'ronlarini va sho'rlanishni oldini olish uchun juda ham ko'p miqdorda ya'ni millionlab saksovullarni ekish eng yaxshi choradir. Darhaqiqat Orol atroflariga yana hayotni qaytarmoqlik uchun uning suv manbalarini ko'paytirmoqlik Amudaryo va Sirdayoning suv sarfini tejash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekistondagi yana bir muamo mamlakat hududining cho'llashish hodisasidir. Diyorimizda daraxtlarning uzluksiz kesilishi tufayli mamlakatimizdagi ko'p daraxtzorlar kesib tashlanishi salbiy oqibatlarga olib keldi. Ayniqsa, so'ngi o'nyilliklarda yashil olam ancha kambag'allashdi. Buning sababidan yurtimizda havoning iloslanish darajasi oshib ketdi. Insonlar o'rtasida turli xil kasalliklar ko'payib ketdi. Dunyoda global iqlim isishi hodisasi kuzatilayotgani tufayli barcha mamlakatlarda tabiatni asrash undagi mavjudotlarni himoya qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Jumladan O'zbekistonda ham ushbu masala hayot-mamot masalasi kabi ko'rilmog'ligi kerak. Aholi soni vaqt o'tgani sari ko'payib bormoqda. Bilamizki, aholi ko'p kislorod istimol qiladi. Darhaqiqat, shuning uchun ham ko'p daraxtlar ekmog'ligimiz, tabiatni asrab avaylab, undagi foydali qazilmalardan tejab-tergab foydalanmog'ligimiz kerak. Har bir fuqaromizga tabiatni asrash to'g'risida bilimlarni o'rgatmog'imiz, ularni shu ruhda tarbiya qilishimiz kerak. Har yili millionlab daraxtlarni ekishni yo'lga qo'yishimiz ushbu ekilgan daraxtlarni asrab-avaylashimiz kerak. Daraxtlarni sug'orish uchun tomchilab sug'orish usullaridan foydalanmog'ligimiz kerak. Agar mamlakatimizda yashillik kuchaysa havo harorati sovushni boshlaydi. Bu esa iqlim o'zgarishi hodisasini sekinlashtirishga olib keladi yog'in-sochinlar ko'payadi, tabiat avvalgi holiga qaytadi, insonlar o'rtasidagi kasalliklar kamayadi aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi oshadi. Barcha mammolarga yagona yechim bu daraxtlar sonini ko'paytirish ko'plab o'rmonzorlar barpo etish bilan hal bo'ladi.

Mamlakatimiz maydonidan ancha kichik bo'lgan Yaponiya, Buyuk Bitaniya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar misolida tabiatni asrash va o'rmonzorlarni ko'paytirish muvaffaqiyatlarga olib kelishini ko'rdik. Hozirgi kunda Yaponiya hududining 2/3 qismini o'rmonlar tashkil etganligi tufayli mamlakatda havoning ifloslanish darajasi juda past holatda. Buyuk Britaniyada esa o'rmonlarning maydoni 3 barobar ko'payganligi tufayli London, Kembrij, Oksfod, Edinburg kabi shaharlar o'z jilosini yo'qotgani yo'q. Birlashan Arab Amirliklarida esa so'ngi yillarda millionlab daraxtlarning ekilishi tufayli mamlakatda deyarli cho'llashish holati barham topmoqda. G 7 davlatlarida iqtisodiyot juda kuchli bo'lsa ham ushbu davlatlar tabiatni asrash va o'rmonlar maydoni bo'yicha ham yetakchilik qilib kelmoqda. Shuni nazarda tutishimiz kerakki dunyoning rivojlangan

davlatlari ona tabiatni asrash borasida juda katta mablag'lar ajratishmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu juda past ko'rsatkichni tashkil etadi.

Insoniyat o'zining tarixiy shakllanish bosqichida hayvonlar va o'simlikarga hozirgi davrdagidek zarar yetkazmagan edi. XX – asrda fan-texnika inqilobi hodisasi tufayli tabiatdagi ayrim hayvon va o'simlik turlari qirilib ketdi. 2014-yili Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi e'lon qilgan hisobotlarda bayon qilinishicha 1970 – yildan buyun yer yuzida yovvoyi hayvonlar soni ikki barobar kamaydi. Qush va sut emizuvchilarning mingdan ortiq turi yo'qolib ketish arafasida. Bu o'ta katta fojia bo'lib, O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q. Jonajon vatanimiz O'zbekistonda ham ba'zi bir hayvon turlari yo'qolib ketdi ba'zilar esa yo'qolish arafasida turibdi. Yo'qolib ketgan hayvonlarning orasida Turon yo'lbarisi ham bor. Yo'qolib ketayotgan hayvonlarga qor qoplani, qum efasi, menzbir sug'uri, tosh suvsar, kabilarni kiritib o'tsak bo'ladi. Yo'qolib ketayotgan hayvonlarning ayrimlari haqida ma'lumotlar aytib o'tmoqchimiz. Qor qoplani haqidagi ushbu faktlar juda ham achinarli. O'zbekistonda qor-qoplolarining soni 30-50-dan 80-120 gacha baholanadi. Bu hayvon turi deyarli yo'qolib ketmoqda. Menzbir sug'uri ushbu hayvon oxirgi yillarda 20 barobar qisqarib ketmoqda. Chotqol davlat qo'riqxonasining ma'lum qilishicha ko'rsatilgan davrda noqonuniy ovchilik faoliyati oqibatida sug'urlar miqdori 100 mingdan 5 -7 mingga tushib ketdi. Chotqol davlat qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi Yelina Bekovanning so'zlariga qaraganda, Menzbir sug'urlari tarqalgan hududning eng katta qismi O'zbekistonga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar Menzbir sug'urini himoya qilish, masalasida O'zbekistonga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston hududida hayvonlar va o'simliklarni asrash maqsadida jazo joralarini kuchaytirmog'imiz kerak. Kamayib ketayotgan hayvonlarni noqonuniy ovlagan fuqarolarga qo'yilgan ma'muriy jazolarni jinoiy jazoga o'zgartirishning qonuniy asoslarini ko'rib chiqishimiz kerak. Mamlakatimizda qo'riqlanayotgan hududlar maydonini kengaytirishimiz va ushbu xizmatning kuchli qonuniy asoslarini yaratmog'imiz kerak. Tabiatni himoya qilish bo'yicha taklif etilgan g'oyalarni qo'llab quvvatlab, ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashimiz yelkamizdagi asosiy vazifadir. Bilamizki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qo'riqxonalar, miliy bog'lar, biosfera rezervatlari juda ko'pdir. Masalan, Yaponiyada maktab o'quvchilariga 1-sinfdan to 3-sinfgacha tabiatni asrash to'g'risidagi fanlar asosiy predmet sifatida o'qitiladi. Buning natijasini butun dunyo o'z ko'zi bilan ko'rib turibdi. Biz ham ona tabiatimizni asrashimiz uchun maktab darsliklariga ona tabiatimiz haqida ma'lumotlarni kiritib borishimiz, agar ularni shu ruhda tarbiya qilsak kelajakda biz ham Yaponiya yoki Shveytsariya kabi ekologiyasi toza davlatlar ro'yxatiga kiritishimiz mumkin. Barcha fuqarolarimiz O'zbekistonni tabiati, hayvonoti va o'simlik olamini asrash uchun birgalikda harakat qilishimiz kerak o'shanda yuqori natijalarga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqov. O'rta osiyo tabiiy geografiyasi kitobi.
2. M.T.Mirkamolov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojiyeva, 7 sinif. geografiyasi kitobi.
3. www.Kun.uz
4. www.daryo.uz
5. Yangi O'zbekiston gazetasi